Birinchi navbatda, har qanday huquqiy munosabatlar subyektlarining o'z ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan ne'matlarga ega bo'lishga intilishlarisiz huquqiy manfaatning mavjud bo'lishini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, mazkur ne'matga ega bo'lishga bo'lgan intilish, ya'ni ma'lum ma'noda manfaatni amalga oshirish usuli mavjud huquqiy normalar va amaldagi qonunchilikning mohiyatiga mos kelishi kerak.

Uchinchidan, huquq subyeksi intilayotgan ne'matning o'zi huquqqa xilof bo'lmasligi kerak, aks holda manfaat qonuniylik "mazmunidan" mahrum bo'ladi (huquqiy tabiatga ega, ammo mohiyatiga ko'ra huquqqa xilof manfaat haqida gapirish mumkin bo'ladi).

To'rtinchidan, huquqiy manfaatga ega shaxs boshqalardan uni buzmaslikni talab qilish huquqiga ega bo'lmagan holda, huquqiy manfaat mustaqil huquqiy muhofaza va himoya obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Demak, har qanday shaxsda uni himoya qilish uchun muayyan vakolatli organlarga murojat qilish huquqi mavjud.

Huquqiy manfaatlar mazmunining o'ziga xosligi uning "mohiyati"ni anglash orqali to'liqroq namoyon bo'ldi. Huquqiy manfaatlarning mohiyati obyektiv huquqda ifodalanган yoki uning umumiy ma'nosidan kelib chiqadigan va davlat tomonidan muayyan darajada kafolatlangan yuridik ruxsatdan iboratdir. Ruxsat qonuniy manfaatni barcha boshqa huquqiy toifalardan farq qiladigan mustaqil va o'ziga xos huquqiy hodisa sifatida qarash imkonini beradi.

Huquqiy manfaatlarning tuzilishi undagi intilishlarning o'zaro bog'lanishi, ularning tashkil qilinishi va birlashish usulidan iboratdir. Huquqiy manfaatlar tuzilishida asosiy element subyektning o'z ehtiyojlarini mavjud barcha qonuniy usullar bilan qondirish uchun muayyan ijtimoiy ne'matga ega bo'lish zaruratidir.

Manfaatli maqsadga erishish, manfaatni amalga oshirish, ehtiyojlarni qondirish – qonuniy manfaatlar mazmunining asosiy tuzilmaviy elementi bo'lib, uning mazmunini ifoda etadi.

Subyektiv huquqdan farqli o'laroq, huquqiy manfaatga birovning huquqiy majburiyati mos kelmasligi huquqiy manfaatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarida ikkinchi darajali deb qarashga asos bo'la olmaydi va bo'lmasligi kerak. Bu huquqiy tartibga solish mexanizmlarida subyektiv huquqlar, shaxsning huquqiy maqomi, huquqdagi rag'bat va cheklovlar singari muhim "detal"dir. Fuqarolik jamiyatining mavjud bo'lishi aynan subyektiv, shaxsning ajralmas konstitutsiyaviy huquqlariga tayangan holda, doktrinada ularning ko'p sonli, shaxsiy xususiyatga ega bo'lishi va davlatning jamiyat ha-

yotining barcha sohalariga aralashuviga zarurat yo'qligi sababli ifoda etib bo'lmaydigan qonuniy manfaatlarni qondirish uchun ishlaydi.

Avvalo subyektiv huquq tushunchasining mohiyatiga keladigan bo'lsak, bu haqida rus huquqshunos olimi L.I. Gluxareva: "Subyektiv huquq – rasmiy ravishda belgilangan, ya'ni tegishli qonun ijodkorligi tartibidan o'tgan va shuning uchun davlat tomonidan kafolatlangan jismoniy va yuridik shaxslar vakolatlarini ifodalovchi maxsus huquqiy kategoriya", – deydi [7]. Olimning fikridan shuni anglashimiz mumkinki, subyektiv huquq normalarda to'g'ridan to'g'ri belgilangan shaxs huquqlari va huquqiy munosabatga kirishayotgan subyektning qonun doirasidagi harakati yoki harakatsizligini ko'rsatuvchi norma hisoblanadi. Huquqshunos olim Sh. Saydullaevning fikricha, subyektiv huquq – subyektning sodir etishi mumkin bo'lgan xatti-harakati turi va o'lchovidir. Shuningdek, subyektiv huquq ma'lum subyektga tegishli bo'lgan va faqat uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan huquq sifatida amal qiladi. Shaxsning eng muhim subyektiv huquqlari inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda, muayyan davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlab qo'yiladi. Har qanday subyektiv huquq uni amalga oshirishning qonun bilan belgilab qo'yilgan muayyan shartlariga ega bo'ladi. Bu shartlar huquqning suiiste'mol qilinishi, ya'ni undan boshqa shaxslar huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlariga zid ravishda foydalanishining oldini olishga qaratilgan [8]. Aytishimiz mumkinki, subyektiv huquqlarini amalga oshirayotgan huquq subyekt yuridik majburiyatlarni bajarishi kerak bo'ladi, ya'ni subyektiv yuridik majburiyatda subyekt muayyan harakat sodir etishdan yoki sodir etmaslikdan o'zini tiyishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Huquqiy manfaatning mohiyatini esa subyektiv huquqdan boshqacharoq tushunish mumkin. Olimlarning har ikka-

la tushunchaga bergan fikr va xulosalarini o'rgangan holda, huquqiy manfaatlarni bir shaxsga yoki ma'lum bir predmetga qaratilgan deb emas, bir qanchaga huquqiy munosabatlarni o'zida mujassamlashtira olganligini, huquqiy manfaatda ham ma'lum bir chegara borligini va tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vosita ekanligini anglash mumkin. Huquqiy manfaat – subyektiv huquqni yo'naltirib turuvchi vosita. Chunki subyekt manfaat topish maqsadida subyektiv huquqlaridan foydalana boshlaydi, agar u ega bo'lmoqchi bo'lgan manfaat qonuniy bo'lsa va jamiyat manfaatlariga zid bo'lmasagina, o'z huquqlaridan, ya'ni subyektiv huquqlaridan foydalanadi. O'z-o'zidan qonuniy bo'lgan va subyekt ega bo'la oladigan, uning ega bo'lishini qonun ta'minlaydigan manfaatlar normalarda yozilgan bo'lishi mumkin. Xuddi shu, ya'ni huquqiy manfaatlarining normalarda yozilganligi va shaxs manfaatlarini himoya qilishi subyektiv huquq elementlarining biriga o'xshaydi. Ammo huquqiy manfaat – subyektiv huquqdan yetarlicha farq qiladigan huquqiy kategoriya. Subyektiv huquq muayyan subyektga tegishli bo'lgan va uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan huquq sifatida amal qiladi, huquqiy manfaat esa shaxs xohlasa-da, uning ixtiyoridan tashqarida bo'lishi mumkin, hatto shaxs bu ixtiyorni amalga oshirishdan manfaatdor bo'lsa ham. Bugungi huquq rivojlangan muhitda buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin, ya'ni jamoa manfaatlarini shaxs manfaatlaridan ustun turishida, xalq manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun turishi kabi.

Huquqiy manfaat – qonun bilan tan olingan va himoya qilinadigan, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan intilishidir [9; 10]. Huquqshunos olim A.V. Malko ta'kidlaganidek, huquqiy manfaat subyektiv huquqdan farqli ravishda, shaxsga aniq yuridik imkoniyatlar bermaydi, balki uning qonuniy intilishlarini ifodalaydi [6].

Huquqiy manfaatning asosiy belgilari:

- qonuniylik;
- ijtimoiy ahamiyatlilik;
- huquqiy himoyalanganlik;
- shaxsning erki-irodasiga asoslanganlik;
- jamiyat manfaatlari (huquq normalari)

ga zid kelmaslik.

Qonuniylik. Uning asosiy mohiyati huquqiy manfaat qonuniy asosga ega bo'lishida, ya'ni qonunlarda yoki qonunosti hujjatlarida mustahkamlanganligida namoyon bo'ladi. Bu belgini ta'minlash uchun manfaatlar davlat tomonidan tan olinishi va tegishli huquqiy normalar bilan himoya qilinishi lozim. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasi va fuqarolik qonunchiligi fuqarolarning mulk huquqini himoya qiladi. Ushbu huquqiy manfaatlar fuqarolarning shaxsiy mol-mulkdan foydalanish va uni boshqarish huquqiga asoslanadi.

Ijtimoiy ahamiyatlilik. Huquqiy manfaat shaxsning shaxsiy ehtiyojlaridan tashqari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni ular umumiy jamoat manfaatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu manfaatlar insonning asosiy huquqlarini va ularning rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, mehnat huquqlari va ijtimoiy ta'minot huquqlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali jamiyatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Huquqiy himoyalanganlik. Huquqiy manfaat qonunlar bilan himoyalangan bo'lishi lozim. Bu esa davlat organlarining o'z vakolatlari doirasida manfaatlarni himoya qilishini anglatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi mulkiy manfaatlarini himoya qilishga doir qoidalarni o'z ichiga oladi. Agar shaxsning manfaatlari buzilsa, u sudga murojaat qilish huquqiga ega, bu esa huquqiy himoalanishning bir ko'rinishidir.

Shaxsning erki-irodasiga asoslanganlik. Huquqiy manfaatlar shaxsning xohish va erkinligiga muvofiq shakllanadi. Bu shaxsning manfaatlari uning ichki irodasiga, ehtiyojlari-ga muvofiq bo'lishi kerakligini bildiradi. Masalan, shaxsning kasb tanlash huquqi uning shaxsiy xohish va erkiga asoslangan bo'lib,

ushbu manfaat O'zbekistonning mehnat qonunchiligida kafolatlangan.

Jamiat manfaatlari (huquq normalari) ga zid kelmaslik. Huquqiy manfaatlari jamiyatning umumiy manfaatlari yoki qonun normalariga zid kelmasligi kerak. Bu shaxsning manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan mos bo'lishi zarurligini bildiradi. Masalan, shaxsning tadbirkorlik faoliyati orqali daromad olish manfaati fuqarolik qonunchiligida kafolatlangan, lekin bu faoliyat qonunlarga zid bo'lmasligi lozim. O'zbekistonda soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lash tadbirkorlik faoliyatida asosiy talablardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston milliy qonunchiligida ushbu belgilar manfaatlarni qonuniy shakllantirish va himoya qilish mexanizmlarini aniqlaydi hamda fuqarolarning manfaatlari davlat va jamiyat tomonidan tan olishga asos bo'ladi. Ushbu belgilar orqali huquqiy manfaatlarni na faqat shaxsiy yoki iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishda ham muhim o'rin tutadi.

Huquqiy manfaat shaxs va jamiyat uchun huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi va turli vazifalarni bajaradi. Ushbu funksiyalar O'zbekiston qonunchiligida ham aks etgan.

Huquqiy manfaat quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Huquqiy manfaatning *regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyasi* orqali shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni yo'naltirib, ularning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Masalan, mehnat qonunchiligida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar muayyan huquqiy manfaatlarni asosida tartibga solinadi: ish beruvchi mehnat sharoitlarini ta'minlaydi, xodim esa o'z mehnat vazifalarini bajaradi. Bu manfaatlarni munosabatlarning muvofiq bo'lishiga yordam beradi va har ikki tomonning huquqlarini himoya qiladi.

Huquqiy manfaatning *himoya funksiyasi* shaxsning qonuniy manfaatlari buzilishdan himoya qiladi. Bu davlat organlari va

sudlar tomonidan ta'minlanadi, buning yordamida shaxs o'z huquqlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlangan bo'lib, shaxs o'z mulkiga qonuniy ega bo'lish va uni himoya qilish huquqiga ega. Agar mulk huquqi buzilsa, shaxs sudga murojaat qilib, o'z huquqini himoya qilishi mumkin.

Huquqiy manfaatning *motivatsion funksiyasi* shaxsni muayyan ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishga motivatsionalaydi. Bunda shaxs o'z manfaatlarini qonuniy yo'llar orqali qondirishga intiladi. Masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun soliqlarni o'z vaqtida, belgilangan tartibda to'lashga va faoliyatni qonun doirasida amalga oshirishga motivatsionalangan. Bu orqali jamiyatda qonuniy va ijtimoiy foydali faoliyat tartibga solinadi.

Huquqiy manfaatning *indikativ funksiyasi* shaxsning huquqiy maqomi va uning talablarini belgilash uchun ko'rsatkich vazifasini o'taydi. Bu orqali shaxs o'zining ijtimoiy va huquqiy o'rnini anglaydi va o'z huquqlarini qonun doirasida qanday amalga oshirishni bilib oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy huquqlarini belgilab beradi. Bu huquqlar indikativ vazifani bajaradi va har bir fuqaro o'z huquq va manfaatlarini qanday tarzda himoya qilishni tushunib yetadi.

O'zbekiston milliy qonunchiligida huquqiy manfaatlarning ushbu funksiyalari inson huquqlari va jamiyat tartibini saqlashda muhim o'rin tutadi, shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirishga hissa qo'shadi. Subyektiv huquq va huquqiy manfaat quyidagi umumiy jihatlariga ega:

- huquqiy tartibga solish predmeti hisoblanadi;
- davlat tomonidan himoya qilinadi;
- shaxsning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi;

– huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Subyektiv huquq va huquqiy manfaatlar huquq tizimida turli vazifalarni bajaradi va ular o'zaro bir qancha jihatlar bo'yicha farqlanadi. Ularning quyidagi farqlari mavjud:

Yuridik tabiatga ko'ra, subyektiv huquq – shaxsga qonunga binoan berilgan va davlat tomonidan himoya qilinadigan imkoniyatlar majmuasi. Huquqiy manfaat esa shaxsning qonuniy yo'l bilan ta'minlangan ehtiyojlari va talablaridir, lekin u har doim ham huquqiy munosabatda subyektning aniq huquqi sifatida shakllanmaydi. Masalan, mehnat qonunchiligiga ko'ra, ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan manfaatlar mavjud, lekin bu manfaatlar hamma vaqt ham huquqiy munosabatlarga aylanmaydi.

Amalga oshirish mexanizmiga ko'ra, subyektiv huquq to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilib, shaxs undan doim o'z irodasiga qarab faol tarzda foydalana oladi. Masalan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda shaxs mulkni tasarruf etishi yoki uni boshqarishi. Huquqiy manfaat esa ko'proq shaxsning xohishi yoki talabi sifatida namoyon bo'ladi, lekin uning amalda ta'minlanishi davlat organlari yoki qonun himoyasi bilan shartlangan bo'lishi mumkin. Masalan, atrof-muhitning sof, toza bo'lishiga bo'lgan manfaat to'g'ridan to'g'ri shaxsning huquqiy harakati emas, balki davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida kafolatlanadi.

Huquqiy kafolatlanganlik darajasiga ko'ra, subyektiv huquqlar davlat tomonidan qonuniy himoyalangan va huquqbuzarlik sodir etilganida ularni tiklash kafolatlanadi. Huquqiy manfaatlar esa har doim ham kafolatlanmaydi; ular davlat tomonidan himoyalangan bo'lishi mumkin, lekin bu aniq ko'rsatib qo'yilmasligi mumkin. Masalan, mulk huquqi aniq kafolatlangan subyektiv huquq bo'lib, agar ushbu huquq buzilsa, sud orqali tiklanadi, ammo ma'naviy manfaatlar har doim ham kafolatlanmaydi.

Himoya qilish usullari va yo'llariga ko'ra, subyektiv huquqlar buzilganda, shaxs

to'g'ridan to'g'ri sud yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi mumkin. Huquqiy manfaat esa turli mexanizmlar orqali himoyalanaadi, lekin ularni tiklash to'g'ridan to'g'ri huquqiy yo'l bilan ta'minlanmasligi ham mumkin. Masalan, iste'molchilarning manfaatlarini maxsus himoya tashkilotlari tomonidan ta'minlanadi, lekin buni hamma vaqt sud orqali tiklash imkoniyati, uni amalga oshirish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan bo'lishi mumkin.

Ushbu farqlar subyektlarning huquqiy munosabatlardagi o'rni va imkoniyatlarini aniqlaydi hamda shaxslarning qonuniy ehtiyojlarini turli darajada ta'minlash va himoya qilish imkoniyatini beradi.

Germaniya Federativ Respublikasida subyektiv huquq va huquqiy manfaatlarini himoya qilish tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

Konstitutsiyaviy shikoyat instituti (Verfassungsbeschwerde);

Fuqarolarning bevosita Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi;

Asosiy huquqlarning buzilishi bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish;

Davlat organlari qarorlarini konstitutsiyaviylik nuqtayi nazaridan tekshirish;

Konstitutsiyaviy shikoyat institutining huquqi asoslari.

Germaniya Asosiy qonunining 93-moddasi 1-bandining 4a-kichik bandi va Federal Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonunning 13-moddasi 8a-band va 90–95-moddalarida konstitutsiyaviy shikoyat qilish masalasi yoritilgan [11].

Konstitutsiyaviy shikoyat berish uchun huquqiy himoyaning barcha boshqa vositalari tugatilgan bo'lishi, shikoyat berish mudдати – huquq buzilganidan so'ng 1 oy ichida, yozma shaklda hamda shikoyat qiluvchining aynan qaysi huquqlari buzilayotganligi aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Ushbu mexanizm Germaniyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyaviy shikoyat instituti orqali har

bir shaxs o'z huquqlarini oliy darajada himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu tizim Yevropa huquq tizimida namuna sifatida qaraladi va ko'plab davlatlar tomonidan o'z milliy qonunchiligiga implementatsiya qilingan.

Germaniya modelidagi konstitutsiyaviy shikoyat instituti shaxs huquqlarini himoya qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi va boshqa davlatlar uchun ham o'rnak bo'la oladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida esa subyektiv huquq va huquqiy manfaatlarni himoya qilish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan va huquqiy mexanizmlarga ega. Unda Konstitutsiya, sud organlari, vakillik faoliyati hamda huquqiy yordam tizimlari asosiy o'rin tutadi. Quyida ushbu tizimning muhim jihatlarini amaliy misollar yordamida yoritishga harakat qilamiz.

AQShda subyektiv huquq va huquqiy manfaatlarni himoya qilish tizimining asosiy rolini Konstitutsiyaviy nazorat instituti amalga oshiradi. Sudlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlash orqali inson huquqlarini himoya qiladi. Ushbu mexanizm AQSh Oliy Sudi asosiy o'rin tutadi. Oliy Sud AQSh Konstitutsiyada belgilangan huquq ustuvorligi, adolat va tenglik prinsiplariga mos bo'lmagan har qanday qonunlarni bekor qilish vakolatiga ega. Masalan, 1954-yildagi "Brown v. Board of Education" [12] ishida Oliy sud qonunda mavjud irqiy kamsitishni bekor qilib, ushbu normani qonundan chiqarib tashlagan va bu orqali fuqarolik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirgan. AQShda sud organlari konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida "judicial review" deb ataladigan amaliyotni qo'llaydi. Bu AQSh sudlari normativ-huquqiy hujjatlar hamda mansabdor shaxslarning qarorlarini Konstitutsiyaga mos kelishi yoki mos kelmasligini tekshirish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Ilk bor AQShda 1803-yildagi "Marbury v. Madison" [13] ishida sud organlari qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligini

tekshirishni boshladilar, bu o'z o'rnida ilk bor sudlarga konstitutsiyaviy nazorat vakolatining yaratilganini anglatar edi.

Jamoaviy da'volar AQShda subyektiv huquqlar va manfaatlarni himoya qilishning muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, bu jarayonda bir necha shaxslar birgalikda o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qiladilar. Masalan, iste'molchilar yoki ishchilar huquqlarini buzgan kompaniyalarga nisbatan da'vo ariza berish uchun jamoaviy da'volardan ko'p foydalaniladi [14]. Bu usul orqali da'vog'arlar birgalikda sud jarayonida ishtirok etish orqali o'z huquqlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, jamoat manfaatlari uchun sud jarayonlari orqali huquqiy manfaatlarni himoya qilish ko'pincha hukumat yoki xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va bu jarayon ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida qo'llanadi. Ushbu jarayonda ma'lum bir ijtimoiy guruhlar yoki notijorat tashkilotlar jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qiladilar. Masalan, "ACLU (American Civil Liberties Union)" yoki "NAACP (National Association for the Advancement of Colored People)" [15] tashkilotlari jamoat manfaatlarini himoya qilish uchun ko'plab sud jarayonlarida ishtirok etib kelmoqdalar.

Amerika huquqiy tizimida subyektiv huquq manfaatlarni himoya qilish tizimi turli darajalarda ta'minlangan bo'lib, har bir mexanizm huquq va manfaatlarni himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tizim huquqiy barqarorlik, adolat va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) huquqiy manfaatlarni aniqlash mezonlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

2) subyektiv huquqlarni amalga oshirish mexanizmlarining mukammal emasligi;

3) huquqiy himoya vositalarining samaradorligi pastligi.

Takomillashtirish yo'nalishlari:

- 1) qonunchilikni takomillashtirish;
- 2) sud amaliyotini unifikatsiya qilish;
- 3) huquqni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish;
- 4) huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

Xulosalar

Mamlakatimizda huquqiy manfaatdan foydalanish va uni himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator asosiy yo'nalishlar mavjud deb hisoblaymiz. Birinchidan, amaldagi qonunchilikda huquqiy manfaatlar va ularning subyektiv huquqlar bilan bog'liqligi, farqiga oid aniq normalar joriy etilishi lozim. Bu fuqarolar va tashkilotlarning manfaatlarini qonuniy himoya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli muhitda shaxs manfaatlarini himoya qilish uchun Yevropa Ittifoqining GDPR reglamentiga o'xshash maxsus qonunchilikni qabul qilish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, huquqiy manfaatlarni himoya qilishda qonunchilik tizimining sifati va mukammalligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy manfaat umumiy tarzda normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud bo'lsa-da, ayrim sohalaridagi huquqiy normalarni yanada takomillashtirish zarur. Qonun hujjatlari ni takomillashtirish orqali shaxsiy huquq va manfaatlarni himoya qilishni kuchaytirish mumkin. Masalan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, xususiy mulkni himoyalash, mehnat huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida huquqiy manfaatlarni kafolatlash uchun qonunlarga aniq, uni amalga oshirish va qo'llash mexanizmlari, qoidalarini kiritish zarurati mavjud.

Uchinchidan, sud amaliyotida unifikatsiya, ya'ni ta'minlash huquqiy manfaatlar himoyasining barqaror va bir xilligini ta'minlaydi. O'zbekistonda sud organlari o'rtasidagi sud amaliyotidagi farqlar ayrim huquqiy manfaatlarining samarali himoyalashiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Sudlar o'rtasidagi amaliyotni bir xillashtirish, ya'ni unifikatsiya qilish uchun Oliy Sud tomonidan yagona sud qo'llanmalari yoki tushuntirishlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

To'rtinchidan, huquqiy manfaatlar ni amalga oshirishda samarali huquqni qo'llash mexanizmlari zarur. Ushbu jarayon huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ishlash samaradorligiga bog'liq bo'lib, jamoatchilikka qulay mexanizmlarni taqdim etish orqali huquqiy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlaydi. Huquqni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va elektron murojaatlar, onlayn ariza topshirish tizimlarini kengaytirish mumkin. Bu jamoatchilikka huquqiy manfaatlarini qonuniy yo'l bilan himoya qilish imkoniyatini beradi.

Beshinchidan, fuqarolarning huquqiy madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, ular o'z huquq va manfaatlarini qonuniy yo'llar bilan himoya qilish imkoniyatlariga shunchalik ega bo'ladi. O'zbekistonda huquqiy ta'lim va huquqiy ongni oshirish yo'nalishidagi ishlar amalga oshirilmoqda, lekin huquqiy madaniyatni yuksaltirish zarurati mavjud.

O'zbekistonda huquqiy manfaatlarni samarali amalga oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, sud amaliyotini unifikatsiya qilish, huquqni qo'llash mexanizmlarini yaxshilash va huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo'nalishlarida keng qamrovli ishlar olib borilishi lozim. Ushbu choralar nafaqat shaxsiy manfaatlarni himoya qilish, balki umumiy jamiyat farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Subyektiv huquq va huquqiy manfaat institutlarining samarali faoliyat ko'rsatishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu borada qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash, xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Alekseev S.S. Obshhaya teoriya prava [General Theory of Law]. Moscow, Prospekt, 2018, pp. 156–178.
2. Matuzov N.I. Lichnost', prava, demokratiya. Teoreticheskiye problemy sub'yektivnogo prava [Personality, Rights, Democracy. Theoretical Problems of Subjective Law]. Saratov, SGU Publ., 2017, pp. 89–123.
3. Aleksandrov N.G. Zakonnost' i pravootnosheniya v sovetskom obshhestve [Legality and legal relations in Soviet society]. Moscow, Legal Literature Publ., 2015, pp. 91–108.
4. Kuchinskiy V.A. Zakonnyye interesy lichnosti: ot Konstitutsii k pravorealizuyushhey deyatel'nosti [Legitimate interests of the individual: from the Constitution to law-enforcement activities]. *Theoretical Issues of the Implementation of the Constitution of the USSR*, Moscow, 1982, p. 86.
5. Yeroshenko A.A. Sudebnaya zashhita okhranyayemogo zakonom interesa [Judicial protection of an interest protected by law]. *Soviet Justice*, 1977. vol. 13, p. 19.
6. Malko A.V. Sub'yektivnoe pravo i zakonnyy interes [Subjective right and legitimate interest]. *Jurisprudence*, 2018, vol. 4, pp. 54–62.
7. Glukhareva L.I. Sub'yektivniye prava, osnovnyye prava, prava cheloveka: yedinstvo i razlichiya [Subjective rights, fundamental rights, human rights: unity and differences]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/subektivne-prava-osnovne-prava-prava-cheloveka-edinstvo-i-razlichiya-1>
8. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, TSUL Publ., 2021.
9. Malein N.S. Okhranyaemyy zakonom interes [Interest protected by law]. *Soviet State and Law*, 1980, vol. 1, p. 34.
10. Tikhomirov Yu.A. Teoriya zakona [Theory of Law]. Moscow, 1982, p. 139.
11. Kommers D.P. The Constitutional Jurisprudence of the Federal Republic of Germany. Duke University Press, 2012.
12. Brown v. Board of Education, 347 U.S. 483 (1954).
13. Marbury v. Madison, 5 U.S. (1 Cranch) 137 (1803).
14. Roe v. Wade, 410 U.S. 113 (1973).
15. Class Action, Federal Rules of Civil Procedure, Rule 23.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 6-SON

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.